

Madaniy va kreativ tarmoqlar uchun global vazifalar

11 hal qiluvchi harakat

2021 yil, dekabr

Creative Industries
Policy & Evidence Centre
Led by *nesta*

In partnership with



PEC va Xalqaro kengash to'g'risida

Kreativ tarmoqlar siyosati va dalillar markazi (PEC) mustaqil dalillar va siyosiy maslahat orqali Birlashgan Qirollik kreative tarmog'ining o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlaydi. Nesta (Birlashgan Qirollik Ijtimoiy foyda uchun innovatsiya jamg'armasi) boshchiligidagi va San'at va gumanitar tadqiqotlar Kengashi tomonidan moliyalashtiriladigan PEC Birlashgan Qirollik hukumatining sanoat strategiyasi bir qismi sifatida Birlashgan Qirollik bo'ylab (Birmingem, Kardiff, Edinburg, Glazgo, Lankaster universiteti qoshidagi Ish jamg'armasi, London Iqtisod maktabi

(LSE), Manchester, Nyukasl, Sasseks va Olster) universitetlari konsorsiumini o'z ichiga oladi. PEC turli sanoat sheriklari jumladan Kreativ BQ (Creative UK) bilan ishlaydi.

PECning Xalqaro kengashi jahondagi yetakchi siyosat va ijodiy iqtisod amaliyotchilaridan iborat Britaniya Kengashi yiqqan tarmoqdir. Guruh xalqaro madaniy va kreative tarmoq siyosatiga doir axborot bilan o'rtoqlashadi va PEC faoliyatini qo'rib chiqish va u borasida xalqaro niqtai nazarni taqdim etishda tanqidiy do'st sifatida harakat qiladi.

www.pec.ac.uk

Britaniya Kengashi to'g'risida

Britaniya Kengashi san'at va madaniyat, ta'lim va ingliz tili orqali Birlashgan Qirollik va boshqa mamlakatlar xalqlari o'rtasida aloqalar, tushunish va ishonchni o'rnatadi.

Biz ikki yo'l bilan - hayotlarini o'zgartirish uchun to'g'ridan-to'g'ri shaxslar bilan va butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar uchun foyda yaratib, uzoq muddatga kattaroq o'zgarishlar qilish uchun hukumatlar va hamkorlar bilan ishlaymiz.

Biz yoshlarga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, kuchli va inklyuziv jamiyatlarda ishtirok etish uchun izlayotgan ko'nikmalar, ishonch va aloqalarni egallashga yordam beramiz. Biz ularni ingliz tilini o'rganish, sifatli ta'lim olish va xalqaro miqyosda tan olingan malakaga ega bo'lishlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Bizning san'at va madaniyat sohasidagi faoliyatimiz ijodiy ifoda va almashinuvni rag'batlantiradi va ijodiy tashabbusni rivojlantiradi.

www.britishcouncil.org

Ushbu publikatsiyaga quyidagicha havola qilinishi kerak: Creative Industries Policy and Evidence Centre International Council (2021), 'A Global Agenda for the Cultural and Creative Industries', London: British Council and Creative Industries Policy and Evidence Centr.

So'zboshi

COVID-19 pandemiyasi bizga inson ruhi va ijodi eng zulmat soatlarda ham qanday porlashini ko'rsatdi. Dunyo bir vaqtning o'zida yuz bergan sog'liqni saqlash, iqtisodiy va iqlim inqirozlaridan chiqish yo'lini belgilab chiqishga harakat qilar ekan, biz yashash tarzimizni qayta ko'rib chiqish va qayta tiklash, shuningdek barqarorlik va jamiyat farovonligiga, shuningdek iqtisodiy o'sishga yordam beradigan siyosatni ko'rib chiqish imkoniyatiga hayotda bir marta ega bo'lamiz.

Shuningdek bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Kreativ iqtisodiyotning Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shgan hissasi yili bo'ldi va ushbu pandemiyadan so'nggi sayyora, iqtisodiyot va jamiyatni sog'lomlashtirishning jarayonidagi yechimning hal qiluvchi qismi sifatida kreativ iqtisodiyot salohiyatini ta'kidladi.

Aynan shu nuqtai nazardan, Kreativ tarmoq siyosati va dalillar markazi (PEC) Xalqaro kengashi hozirgi muammolarni hal qilishda ijodiy sektor salohiyatini optimallashtirish uchun ushbu o'n bir harakat qadamini taklif qiladi. Bunday turdagi xalqaro guruh – butun dunyo bo'ylab tadbirkorlar, investorlar, siyosatchilar va olimlar – yaqin kelajak uchun kun

tartibini belgilash uchun kreativ iqtisodiyot bo'yicha xilma-xil tajribamizni qo'shgan holda birinchi marta birlashmoqda. Madaniy va ijodiy sohalaridagi eng kuchli va dinamik g'oyalar va eng tez o'sish Global janubda, jumladan tang ahvoldagi va resurslar yetishmaydigan shahar hududlardagi norasmiy ishchilar orasida kuzatilayotganini tan olib, ushbu kun tartibi haqiqatan ham global ekanligini ta'kidlashni ayniqsa muhim deb bilamiz.

Hozirgi kunda kreativ iqtisodiyot global farovonlikka hissa qo'shishi, madaniy o'ziga xoslikni qadrlashi va ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab-quvvatlashi keng e'tirof etilgan bo'lsa-da, u siyosiy harakatlarga kelganda hamon ahamiyatsiz unsur sifatida qabul qilinadi. Ushbu o'n bir harakat qadamining aksariyati dunyoning turli go'shalarida o'z ahamiyatini isbotlamoqda, balki ayniqsa, tasavvurga boy va ilhomlantiruvchi mahalliy va munitsipal rahbarlar orasida, lekin ular juda ko'p hollarda e'tibordan chetda qolmoqda. Biz aymoqchi bo'lganimiz shundan iboratki, agar biz dunyo ehtiyojlarining zudlik bilan qayta konfiguratsiyaga erishmoqchi bo'lsak, bu g'oyalar mahalliy, milliy va xalqaro darajadagi davlat siyosatining asosiy oqimiga kiradi, deb bilishimiz kerak.



Biz **Barqaror rivojlanish maqsadlarini** qo'llab-quvvatlaymiz

1. Ijodiy ta'lim va ko'nikmalar

PEC Kengashi mahalliy, milliy va xalqaro hukumatlarni ta'lim va ta'limning barcha darajalarida san'at va madaniyatning shaxslarda ijodkorlikni rivojlantirishdagi rolini tan olishga chaqiradi. Bu kelajakdagi ishchi kuchidagi nuqson va yetishmovchilikning boshqarish va virtual voqelik, atrof-muhitga ongli munosabatdagi

dizayn va sun'iy intellekt kabi sohalarda paydo bo'ladigan imkoniyatlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan ijodkorlik va ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam beradi. Bunga erishish fan va texnologiya sohasidagi ko'nikmalar bilan bir qatorda, ta'lim va tarbiyaning barcha jabhalarida san'at va madaniyatni integratsiyalashni anglatadi.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



2. Kreativ tadbirkorlik va innovatsiya

Kengash siyosatchilarni Madaniy va Kreativ Tarmoqlarda (MKT) raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida paydo bo'ladigan innovatsion biznes modellarining qiymatini, shu bilan birga ular duch keladigan o'ziga xos muammolarni, jumladan, ijodiy intellektual mulk huquqlariga (IMH) adolatli baho beradigan moliyaga bo'lgan ehtiyojni tan olishga va kichik ijodiy korxonalariga

raqamli inqilobdan to'liq foyda olishga yordam beradigan biznesni qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

MKTda o'z-o'zini ish bilan ta'minlashning yuqori va o'sib borayotgan sur'atlarini hisobga olgan holda, ko'nikmalar tizimlari uzra tadbirkorlik bo'yicha treninglar ta'minlashga e'tiborni oshirish lozim.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



3. Kreativ karyeralar, o'zini o'zi band qilganlar, va norasmiy daromad manbalari

Kengash bu sohada o'zini o'zi ish bilan ta'minlash, vaqtinchalik va shartnoma asosidagi ish va rasmiylashtirilmagan ishning keng tarqalganligini tan olgan holda MKT xodimlari uchun munosib mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyani qo'llab-quvvatlovchi siyosatni olib borishga chaqiradi. Biz xalqaro agentliklar va milliy hukumatlarni ushbu shaxslarning siyosatda adolatli va inklyuziv vakilligini ta'minlash uchun mehnat bozori ma'lumotlarini yaxshiroq to'plashga chaqiramiz.

Xususan, biz ko'plab shaharlarda, xususan, Global janubda norasmiy iqtisodiyotning rolini tan olishni so'raymiz. Cheklangan resurslar, tartibga solinmagan mehnat va ko'pincha ro'yxatdan o'tmagan korxonalar doirasida ishlayotgan norasmiy ijodkorlikni chekkada omon qolish strategiyasi deb e'tiborga olmaslik ham, davlatni o'z majburiyatlaridan ozod qiladigan jamiyatning javobi sifatida xayolotga berilish ham kerak emas.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:




4. Madaniy va kreativ tarmoqlarda tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalar

Kengash butun dunyo bo'ylab siyosatchilar tomonidan qo'llaniladigan tadqiqot va tajriba va konstruktorlik ishlanmalarining "Frascati" ta'rifini qayta ko'rib chiqishni tavsiya qiladi, shunda innovatsiyalarga sarmoya kiritishni rag'batlantiradigan siyosatlar nafaqat fan va texnologiya, balki bilim sohaslarini, jumladan, san'at, gumanitar fanlar va ijtimoiy fanlarni to'liq qamrab oladi. TTKIning baholash tizimlari, jumladan rasmiy TTKI so'rovlarini ham turli sohalarda ilmiy tadqiqotlarni tan olish uchun yangilanishi kerak.

Ko'p tarmoqli va fanlararo ilmiy tadqiqot ishlari - MKTdagi innovatsiyalarning o'ziga xos belgilari - dunyodagi eng katta iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ham zarur.

Kengroq qaraganda Kengash MKT uchun ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada samaraliroq targ'ib qilishni va tarmoqlar (masalan, ishlab chiqarish va dizayn) o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni o'rganishni da'vat qiladi.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



5. Madaniy va kreativ tarmoqlar va raqamli iqtisod

Kengash xalqaro va milliy siyosatchilarni ma'lumotlar va maxfiylik, internet platformasini tartibga solish hamda intellektual mulkni yaratish va himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi normativ-huquqiy baza va infratuzilmani shakllantirishga MKTni jalb qilishga chaqiradi.

Biz, shuningdek, MKT uchun bu hech bo'lmaganda yangi binolar va boshqa jismoniy infratuzilma kabi muhim bo'lib borayotganini tan olgan holda raqamli ko'nikmalarga va kuchli raqamli infratuzilmaga ko'proq sarmoya kiritishga chaqiramiz.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



6. Madaniy va kreativ tarmoqlar va atrof muhit barqarorligi

Kengash siyosatchilarni MKTning chiqindisiz iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini va resurslar va jismoniy muhitga nisbatan kam ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy o'sishni tan olishga chaqiradi, shu bilan birga ular ta'sirni yumshatish uchun choralar ko'rish zarurligini tan oladi. Bu dizayn, jumladan, moda dizayni kabi innovatsiyalar old saflarida bo'lgan, ammo ayni paytda asosiy ifloslantiruvchi

sohalarga tegishli. Bu ko'plab san'at va ko'ngilochar faoliyat uchun ham amal qiladi. Siyosatchilar, agar ular ijodiy biznes va biologik xilma-xillik, mahalliy taomlar, sertifikatlangan axloqiy moda va ekoturizm kabi sohalarda o'rtasidagi tarmoqlararo tendensiyalardan to'liq foyda olishni istasalar, o'zlarining iqlim tashabbuslariga ijodiy amaliyotchilarni kiritishlari kerak.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



7. Kreativ shaharlar va mintaqaviy klasterlar

Kengash milliy va mintaqaviy hukumatlarni nafaqat yirik shaharlardagi MKTga sarmoya kiritishga, balki kichikroq, mahalliy klasterlarda mavjud bo'lgan ko'plab imkoniyatlarni ham ko'rib chiqishga chaqiradi. Mavjud dalillar shuni ko'rsatadiki, ular quyi qatlamlarda o'sishning innovatsion harakatlantiruvchi kuchi bo'lish va global miqyosda MKTda bozorlarga xizmat qilish salohiyatiga ega, shu bilan birga

iqtisodiy barqarorlik va mintaqada tug'ilgan giperlokal jamoalarga tegishlilik tuyg'usini vujudga keltiradi.

Ushbu mikroklasterlarni yaxshiroq tushunish uchun biz siyosatchilarni MKT xaritasini yaratish harakatlariga, masalan, mintaqaviy va milliy ijodiy shaharlar indekslarida asosiy va jamoatchilik tashabbuslarini da'vat qilamiz.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



8. Madaniy va kreativ tarmoqlarda muqobil moliya

Kengash global siyosatchilarni o'sish va tenglikni ta'minlash, ijodiy jamoalar o'rtasida madaniy ishlab chiqarishning yangi turlarini rag'batlantirish uchun zarur infratuzilma, ko'nikmalar, bozorlar va platformalarga xususiy sektor investitsiyalarini rag'batlantirish uchun imtiyozlar va kafolatlarni ishlab chiqish uchun ishonchli

boshqaruvlar va fondlar bilan ishlashga chaqiradi. Birgalikda ishlash orqali xalqaro miqyosda muqobil moliya uchun ko'proq tasavvurga ega tuzilmalarni yaratish va investorlarni global kreativ iqtisodiyotga sarmoya kiritishga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlarni yaratish mumkin edi.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



9. Madaniy va kreativ tarmoqlarda ijtimoiy tenglik, madaniy xilma-xillik va inkluzivlik

Kengash xalqaro agentliklar va milliy siyosatchilarning madaniy va ijodiy amaliyotlar, tillar, an'anaviy bilimlar, san'at va artefaktlar hamda meros ob'yektlari va matnlarini saqlash bo'yicha davom etayotgan va ortib borayotgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, biz raqamli texnologiyalar yordamida madaniyatlararo tajribalarni global miqyosda targ'ib qilishni taklif qilamiz, jamoalarga umumiy auditoriya, jamoaviy ma'no yaratish va yanada inkluziv, dardkash jamiyat orqali hamdardlikni shakllantirishga yordam beramiz.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:




10. Ma'lumotni yig'ish va o'rtoqlashishning xalqaro standartlari

Kengash xalqaro miqyosda taqqoslanadigan dalillar bazasining o'sishini ta'minlash uchun MKT va ijodiy kasblarni tasniflash bo'yicha global standartlarni ishlab chiqishga chaqiradi. Bu xalqaro standart sanoat tasnifi (SIC) va standart kasbiy tasniflash (SOC) kodlarini qayta ko'rib chiqishni ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni o'z ichiga olishi kerak, bu MKTlarning o'zgaruvchan tabiatini aks ettiradi.

Shuningdek, biz MKT ma'lumotlarini xalqaro darajada yaxshiroq to'plashni qo'llab-quvvatlash uchun MKT bilan bog'liq bo'lgan xalqaro o'lchov standartlarini qayta ko'rib chiqishni tavsiya qilamiz. Biz milliy ehtiyojlar va tizimlar o'rtasidagi farqlarni tan olsak-da, global miqyosda hali ham qilinadigan muhim yaxshilanishlar masalan, oqimli uzatish va raqamli xizmatlarning xalqaro savdosi mavjud.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



11. Madaniy kreativ tarmoqlarni boshqarish uchun xalqaro hamkorlik

Kengash butun dunyo bo'ylab MKTni rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikning global standartlarini belgilashga chaqiradi. IMH qonunchiligi, internet qoidalari, soliqqa

tortish va tegishli siyosatlar izchil, inklyuziv, adolatli va sanoat va hukumat uchun o'zaro manfaatli bo'lishi uchun qayta sozlanishi kerak.

Ushbu harakat Barqaror rivojlanish maqsadlarining quyidagilariga aloqador:



Xulosa

Global Madaniy va kreativ tarmoqlar (MKT) ehtiyojlari bo'yicha ikki yillik mulohazalardan kelib chiqqan holda, PEC Xalqaro Kengashining o'n bir harakati siyosatning ko'plab belgilangan sohalarini, xususan, xalqaro darajada qayta ko'rib chiqishni yoqlab chiqadi. Bular tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish ta'rifini qanday izohlashimizdan tortib, o'zini o'zi ish bilan ta'minlovchilar va norasmiy iqtisodiyot to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashga qanday ustun ahamiyat berishimiz, moliyaviy tashabbuslarning ijtimoiy ta'siri markaziga qadar o'rin egallaydi. Biroq, bu mulohazalar muhokamaning oxiri emas: endi xalqaro siyosat yetakchilari uning tamoyillarini asosiy oqimga kiritishlari kerak. Aks holda, nafaqat butun dunyo bo'ylab ijodiy jamoalarni yo'qotishimiz xavfi bor, balki boylikni qayta taqsimlashdan tortib, iqlim o'zgarishigacha bo'lgan davrning eng muhim global muammolarini hal qilish uchun kengroq imkoniyatni boy beramiz. Biz butun dunyo bo'ylab siyosatchilarni BMT tomonidan 2021-yilni "Barqaror rivojlanish uchun xalqaro kreativ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilish natijasida yaratilgan rag'batlantiruvchi kuchdan foydalanishga chaqiramiz. Pandemiya tajribasi butun dunyo bo'ylab keng omma va amaliyotchilar uchun Madaniy va ijodiy tarmoqning ahamiyatini yanada ta'kidladi. Dadil harakat orqali hukumatlar o'z jamoalari, iqtisodlari va xalqaro sherikliklari manfaati uchun ijodkorlik kuchini yanada erkin qilishlari mumkin. Harakat qilish vaqti keldi.

Imzolovchilar

PEC Xalqaro kengashi a'zolari

Avril Joffe

Avril - shahar hayotidagi madaniyat, madaniyat va madaniy iqtisodiyot, xalqaro madaniy hamkorlikdagi adolat va xalqaro agentliklar (XMT, YuNESKO, YuNKTAD), Afrika organlari (Afrika Ittifoqi) va Afrika hukumatlari bilan ishlaydigan madaniyat sohasidagi amaliyotchilar huquqlari va maqomiga doir ilmiy tadqiqor va amaliyot kesishmasida faoliyat olib boruvchi iqtisodiy sotsiolog hisoblanadi. Avril Wits san'at maktabining Madaniy siyosat va boshqaruv bo'limining aspirantura koordinatori. U YuNESKoning Madaniyat siyosati va boshqaruvi bo'yicha ekspertlar kengashi hamda Xalqaro madaniy aloqalarni o'rganish uyushmasining (ICRRA) faol a'zosi.

Mamlakatlar: Janubiy Afrika va Sahroi Kabir janubidagi Afrika.

Bernd Fesel

Bernd Fesel ish faoliyatini san'at sohasi bozorida boshladi, 1997 yilda Evropa galereyalari uyushmasining boshqaruvchi direktori lavozimini egalladi. Shuningdek u Germaniya San'at kengashining jamoatchilik bilan aloqa xodimi sifatida ham ishladi. 2003 yilda u Berlinda bo'lib o'tgan kreativ tarmoqlar boyicha birinchi milliy konferensiyani tashabbus qildi va 2007 yilda Germaniya kreativ tarmoqlar milliy tashabbusining asoschisi bo'ldi; so'ng RUHR.2010 Yevropa madaniyat poytaxtida Fritz Playtgen va prof. Diter Gorniylarning direktor o'rinbosari, keyinroq esa Dortmunddagi Yevropa kreativ iqtisod markazida katta maslahatchi bo'lib xizmat qildi. 2016 yildan beri u Yevropa bo'yab ijodiy sektorda 8 Mio. manfaatdor taraflarning manfaatlarini targ'ib qilib Rotterdamdagi Yevropa ijodiy biznes tarmog'ining direktoridir. 2020 yilda Bernd Fesel Horizon Europe (Yevropa ufqlari) ning dastur qo'mitasiga ekspert etib tayinlandi. U Gamburgdagi San'at va ommaviy axborot boshqaruvi institutida ma'ruzachidir.

Mamlakat: Germaniya.

Daniar Amanaliev

Daniyar seriyali ijodiy tadbirkor va kreativ iqtisodning g'ayratli faolidir. U ololo jodiy hablar, Jon Galt biznes akseleratori ololo ijody ta'sir jamg'rmasininig hamasoschisi va bisnes direktori. Daniyar Markaziy Osiyo Ijodiy forumi Boshqaruv qo'mitasining a'zosi, Markaziy Osiyo kreativ tarmog'i hamasoschisi, Qirg'iziston Kreativ tarmog'i uyushmasining hamasoschisi va raisi.

Mamlakat: Qirg'iziston

Diana Marcela Rey Vásquez

Diana Lotin Amerika tadqiqotlar bo'yicha PhD darajasiga ega siyosatshunos bo'lib kreativ iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot bo'yicha mutaxassis va YuNESKoning Madaniy yoldosh hisoblar loyiha global standartlarning hammuallifidir. U bir necha Lotin Amerika mamlakatida Amerikalarda rivojlanish banki, BMT Ayollar, YuNESKO, CAB va CERLALC (Lotin Amerika va Karib mintaqasida kitoblarni targ'ib qilish mintaqaviy markazi) kabi xalqaro agentliklarda ishab madaniy statistika, siyosat va qonunchilikni rivojlantirishga hissa qo'shdi.

Mamlakatlar: And mintaqasi va Markaziy Amerika mamlakatlari.

Dwinita Larasati

Tita mahsulot dizayneri, Bandung texnologiya institutida ma'ruzachi/tadqiqotchi, YuNESKO Kreativ shaharlar tarmog'i Bandung dizayn shahrining aloqa mas'uli va Indoneziya ijodiy shaharlar tarmog'ining strategik sherikligi (ICCN) deputati. U Bandung ijodiy shahar forumi (BCCF) va Bandung kreativ iqtisodiyot qo'mitasi raisasi, G'arbiy Yava kreativ iqtisodiyot va innovatsiya qo'mitasi (KREASI) maslahatchisi, Indoneziya Yoshlar fanlar akademiyasi (ALMI) va Indoneziya Fanlar akademiyasi (AIPI) a'zosi va Indoneziya Iqlim voqeligi loyihasida (TCRP) iqlim yetakchisi. U CAB, mustaqil nashriyot uchun grafik kundalik yaratadi va uning hamasoschisi hisoblanadi.

Mamlakat: Indoneziya

Edna dos Santos-Duisenberg

Edna Birlashgan Millatlar Tashkilotida xalqaro karyera qilgan iqtisodchi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish konferensiyasida (2004-2012) kreativ iqtisodiyot dasturini ta'xis qildi va rahbari bo'ldi. U 2008 va 2010 yilda BMTning kreativ iqtisodiyot hisobotlarini, shuningdek YuNKTADning kreativ iqtisodiyot bo'yicha global ma'lumot bazasini boshlab berdi. U hukumatlar va muassasalarga maslahat xizmatlarini ko'rsatadi va barcha mamlakatlardagi olimlar bilan hamkorlik qiladi.

Mamlakatlar: Braziliya va Shveysariya

George Gachara

Jorj ijtimoiy tadbirkor, san'at boshqaruvchisi va HEVA Fund LLPda boshqaruvchi sherik. Jorj Sharqiy Afrikada kreativ tarmoqlarni rivojlantirish va biznesni tadqiq qilishni olib boradi va ushbu tez rivojlanayotgan sektorda uzoq muddatli iqtisodiy va madaniy qiymatlarni yaratishda yetakchilik qilib bormoqda.

Mamlakatlar: Keniya, Ruanda, Uganda, Tanzaniya, Efiopiya

Jairaj Mashru

Jai Hindiston, Mumbaida joylashgan Raqamli strategiya va dizayn guruhining innovatsiyalar direktori. Uning ijodiy sa'y-harakatlari Hindiston, AQSh va Birlashgan Qirollikda ta'lim, barqarorlik va kreativ iqtisodiyot uchun tadbirkorlar va siyosatni shakllantiruvchi kishilarga dizayn, innovatsiya va tadbirkorlikdan dars berish, startaplarga ustozlik qilish va dallilarga asoslangan o'sish strategiyalarini taqdim etishga olib bordi.

Mamlakat: Hindiston

John Newbiggin

Jon Kreativ tarmoqlar uchun London merining elchisi va Kreativ tarmoqlar va dalillar markazi Xalqaro kengashining raisi.

Mamlakat: Birlashgan Qirollik

Laura Callanan

Lora Upstart Co-Lab ning muassis sherigi. Upstart Co-Lab ta'sir investitsiyani kreativ iqtisodiyotga bog'lab ijodiylikni mablag' bilan ta'minlashni o'zgartiradi. 2015 yilda Upstart Co-Lab ni boshlab yuborishdan avval Lora San'at milliy jamg'armasi federal agentlikning rais o'rinbosari; McKinsey) & Company ning ijtimoiy sektor idorasida maslahatchi va Rokfeller jamg'armasi direktorining yordamchisi bo'lgan edi.

Mamlakat: Amerika Qo'shma Statlari

Leandro Valiati

Leandro o'z faoliyatini Braziliyada Kreative tarmoq va madaniyat iqtisodiyotida professor va siyosat bo'yicha maslahatchi sifatida boshlagan, MKT bo'yicha eng vakolatli siyosatga yo'naltirilgan ilmiy markazni barpo etgan va unga rahbarlik qilgan. O'tgan yillarda u Ispaniya, Fransiya va Birlashgan Qirollikdagi ilmiy lavozimlarda va siyosat institutlarida boshqaruv kengashi a'zosi sifatida ishlagan. Ilmiy qiziqishlari - "Madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish", "Madaniy siyosat va san'atning ko'p qirrali ta'siri".

Mamlakatlar: Braziliya, Fransiya va Birlashgan Qirollik

Marcel Kraus

Marsel Karl universitetida ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar va san'atning innovatsion salohiyatini hamda fanlararo innovatsiyalarni targ'ib qiladi. San'at va teatr yo'lini tark etgandan so'ng, Marsel Germaniyaning Leypsig shahridagi Fraunhofer institutida va Chex Respublikasi Texnologiya agentligida innovatsion transfer tizimlari va kreativ iqtisodiyot sohasida ishladi.

Mamlakat: Chex Respublikasi

Omar Nagati

Omar amaliyotchi me'mor va shaharsozlik bo'yicha mutaxassis, Qohira markazidagi shaharsozlik va tadqiqot platformasi bo'lgan CLUSTER asoschilaridan biri, bir qator mahalliy va xalqaro universitetlarda o'qituvchi, yaqinda Birlashgan Qirollikning Sheffild universitetida taklif etilgan professor sifatida faoliyat yuritgan.

Mamlakat: Misr

PEC va Britaniya Kengashi vakillari

Britaniya Kengashi

Caroline Meaby

Karolayn Mibi Britaniya kengashining San'at bo'yicha direktori, san'at va ijodiy sohalardagi global ish portfelini nazorat qilish va tashkilotning global ijodiy iqtisodiyot dasturini shakllantirish uchun mas'ul. 2013 yilda Britaniya Kengashiga ishga kirishdan oldin Karolayn televideniye sohasida ishlagan. U shuningdek, Londondagi Studio 3 Arts ning ishonchli vakili hisoblanadi.

Skinder Hundal MBE

Skinder Britaniya Kengashining san'at bo'yicha direktori bo'lib, Birlashgan Qirollik va dunyoning to'rt davlatida ko'plab san'at turlari va asosiy san'at faoliyatini nazorat qiladi. U, shuningdek, Artist News direktorlar kengashi direktori va ilgari New Art Exchange direktori va Nottingham Arts Mela badiiy direktori bo'lgan. Yaqinda u Tom Deyl raqs kompaniyasi (Tom Dale Dance Company) boshqaruv kengashi a'zosi sifatida nafaqaga chiqdi.

PEC

Eliza Easton


Eliza Nesta Innovatsion Jamg'armasi boshchiligidagi Kreativ tarmoqlar siyosati va dalillar markazining (PEC) siyosat bo'limi rahbari. U Kembrij siyosat stipendiyasi egasi.

Hasan Bakhshi

Hasan Birlashgan Qirollik Kreativ tarmoqlar siyosati va dalillar markazining direktori. U Birlashgan Qirollikning Darbar Arts and Art kengashi a'zosi va Birlashgan Qirollik hukumatining Kreativ tarmoqlar kengashining asoschi a'zosi.



British Council

 @BritishCouncil
www.britishcouncil.org

Birlashgan Qirollikning madaniy aloqalar va ta'lim sohasidagi imkoniyatlar bo'yicha xalqaro tashkiloti.
Ro'yxatga olingan xayriya: 209131 (Angliya va Uels) SC037733 (Shotlandiya).

Creative Industries Policy & Evidence Centre

Led by **nesta**

Creative Industries Policy and Evidence Centre (PEC)
58 Victoria Embankment
London EC4Y 0DS

+44 (0)20 7438 2500

enquiries@pec.ac.uk

 @CreativePEC

www.pec.ac.uk

The Creative Industries Policy and Evidence Centre Nesta tomonidan boshqariladi.
Nesta Angliya va Uelsda ro'yxatdan o'tgan xayriya, kompaniya raqami 7706036 va xayriya raqami 1144091.
Shotlandiyada xayriya sifatida ro'yxatga olingan, raqami SC042833. Yuridik manzili: 58 Victoria Embankment, London, EC4Y 0DS.

